

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
HUZURIDAGI YURIDIK KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

"KELISHILGAN"

O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi huzuridagi
X.Sulaymonova nomidagi
Respublika sud ekspertiza
markazi direktori



A. Xalilov

2025-yil 30-aprel

"TASDIQLAYMAN"

Yuridik kadrlarni qayta
tayyorlash va malakasini
oshirish instituti direktori



Y. Kanyazov

2025-yil 30-aprel

"SUD-QURILISH-TEXNIK EKSPERTIZASI"
fani bo'yicha dual ta'lim shakli asosidagi qayta tayyorlash kursining

O'QUV DASTURI

Mutaxassislik – Sud ekspertlik faoliyati

Toshkent – 2025

I. O'QUV FANINING DOLZARBLIGI VA OLIV KASBIY TA'LIMDAGI O'RNI

“Sud-qurilish-texnik ekspertizasi” fani bo‘yicha qayta tayyorlash kursining **O‘quv dasturi** (bunda keyin matnda O‘quv dasturi deb ataladi) – O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 13-apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymanova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi faoliyatini yanada takomillashtirish hamda sud ekspertlarini malakasini oshirish tizimini tashkil qilish to‘g‘risida»gi 206-sonli, 2025-yil 19-martdagи “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi 171-son qarorlariga, 2020-yil 24-martdagи “Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 180-son qarori bilan tasdiqlangan “Nodavlat sud ekspertizasi tashkilotlari sud ekspertlari (bundan keyin matnda Sud ekspertlari deb yuritiladi)ni qayta tayyorlash, malakasi va huquqiy bilimini oshirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq, sud ekspertlarini qayta tayyorlashga qo‘yiladigan talablar asosida ishlab chiqilgan.

O‘quv dasturi tarkibida sud ekspertlarining qayta tayyorlashning dolzarbliji va oliv kasbiy ta’lim dasturidagi o‘rni, maqsadi, vazifalari va o‘rganadigan muammolari, ko‘nikma va malakalar tasnifi, nazariy, amaliy va mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari hajmi va mazmuni, metodik tavsiyalar, mavzuviy rejalar, o‘quv-uslubiy adabiyotlarni qamrab olgan.

II. O'QUV FANINING MAQSADI VA VAZIFASI

“Sud-qurilish-texnik ekspertizasi” fani bo‘yicha o‘qitishdan **maqsad** - tinglovchilarda sud-ekspertlik faoliyatining ijtimoiy ahamiyati va huquqiy asoslari, sud qurilish-texnik ekspertizasi sohasida chuqur nazariy bilimlar; ekspertiza tadqiqotlarining ilmiy asoslangan uslub va vositalarini, shuningdek sohaga oid innovatsion yondashuv va yechimlarni o‘rganish hamda qo‘llay bilish, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Shuningdek, sud ekspertlarida kasbiy bilimlarni chuqur o‘rganish va muttazam takomillashtirib borish, umumiy dunyoqarashni kengaytirish, kasbiy tezkorlikni shakllantirish (ekspertiza tadqiqotlarini darhol o‘tkazishga kirishish, nostandard ekspertiza vaziyatlariga tayyor bo‘lish va h.k.), faoliyati davomida tashabbus ko‘rsatishga va profilaktik tadbirlarni amalga oshirishga intilishni tarbiyalash muhim vazifa hisoblanadi.

O'quv fanining asosiy vazifalari:

- sud ekspertlari tomonidan sud-qurilish-texnik ekspertizasiningning nazariy asoslarini tizimli ravishda egallashlarini ta'minlash;
- sud-qurilish-texnik ekspertizasi ob'ektlarining identifikatsion, diagnostik va situalogik tadqiqotlarining asosiy metodik prinsiplarini o'rgatish;
- ob'ektlarning ekspertiza tadqiqotlari metodikasini hamda ekspertning jinoyatlarni oldini olishga qaratilgan profilaktik faoliyatining metodlari bo'yicha nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Shuningdek, sud ekspertlarida jinoyatlarni ochish va tergov qilishda sud-qurilish-texnik ekspertizasining ekspertizalarning amaliy ahamiyati to'g'risidagi ishonchni tarbiyalash muhim vazifa hisoblanadi.

Nodavlat sud ekspertlarini qayta tayyorlashga quyiladigan talablar

Umumiy talablar

- sud ekspertlari konstitutsiya va qonunlarda belgilangan asosiy prinsiplarni va qoidalarni, qonun hujjatlari normalarini to'g'ri anglashi va qo'llashni bilishi;
- sud ekspertlik faoliyatini amalga oshirish qobiliyatining shakllanishi;
- ilmiy – tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanish qobiliyatining takomillashi;
- turli vaziyatlarga nisbatan ruhiy barqarorlikni shakllantirishi.

Maxsus talablar

- sud-qurilish-texnik ekspertizasining asoslari va o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- sud-qurilish-texnik ekspertizasining umumiy va xususiy nazariyasining asoslari;
- sud-qurilish-texnik ekspertizasini tayinlash va o'tkazishdagi xatolar va ularni aniqlash hamda bartaraf etish yo'llari;
- sud-qurilish-texnik ekspertizalarda tabiiy, texnik va boshqa maxsus kurslarning zamonaviy yutuqlaridan foydalanish imkoniyatlari;
- sud ekspertiza muassasalarida mavjud sud-qurilish-texnik ekspertizasining uslubiyoti va texnik-kriminalistik vositalarini bilishi va ulardan foydalana olishi zarur;
- sud ekspertining sud-qurilish-texnik ekspertizasini o'tkazishda protsessual qonunchilik normalarini qo'llash sohasidagi asosiy muammolarini aniqlash;
- sud-qurilish-texnik ekspertizasini o'tkazish, natijalarini baholash va ekspert xulosasini shakllantirish;
- sud-ekspertlik faoliyatiga oid ish hujjatlarini tuzish va rasmiylashtirish

ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

- sud ekspertlarning ushbu normalarni qo‘llay olish amaliyotini shakllantirish va takomillashtirishi.

**“Sud-qurilish-texnik ekspertizasi” fanidan
MAVZULAR REJASI**

T/r	Mashg‘ulotlarning mavzusi	Shu jumladan,			
		Jami o‘quv soatları	Ma’ruza	Seminar	Amaliy mashg‘ulot
1.	Bino va inshootlarni baholash ekspertizalari va tekshiruvlarni tashkil qilish va o‘tkazish asoslari	16	2	-	14
2.	Bino va inshootlar xamda ularning qismlarini eskirish miqdorini aniqlash asoslari	18	2	-	16
3.	Bino va inshootlarning baholarini aniqlash asoslari. Baholovchi tashkilotlar tomonidan tuzilgan baholash hisobotlarini ilmiy asosliliginini aniqlash usuli	18	2	2	14
4.	Ta’mirlash-qurilish va qurilish ishlari smeta hujjatlarining asosli yoki asossizligini aniqlash	18	2	-	16
<i>Oraliq nazorat</i>		<i>Test</i>			
5.	Binolar hamda ularning qismlarini bo‘lish va foydalanish tartibini belgilash	18	2		16
6.	Ko‘p qavatli binolarda xonadonlarni qayta ta’mirlash va loyihalashtirish. ShNK talablariga mosligi yoki mos kelmasligini aniqlash	20	2	2	16
7.	Qurilishda mansabdor shaxslar tomonidan talontarojlikka yo‘l qo‘yilishi hamda bino va ishootlarning texnik holatiga ta’sir qiluvchi avariya holatlarini aniqlash. Avariya holatlari sabablarini aniqlash	22	2	2	18
8.	Ta’mirlash-qurilish va qurilish ishlari smeta hujjatlarining asosli yoki asossizligini aniqlashda TN Qurilish dasturidan foydalanish	20	2	-	18
<i>Oraliq nazorat</i>		<i>Test</i>			

9.	Sud-yer ekspertizasi ob'ektlari. Ajratilgan yer maydonlarining haqiqiy o'lchamlarini yer ajratish kadastr hujjatlaridagi o'lchamlar bilan mosligi yoki mos kelmasligini aniqlash	20	2	2	16
10.	Turar joy binolarini bo'lishda yer maydonlarini bo'lish imkoniyatlarini aniqlash	16	2	-	14
11.	Yerdan foydalanish xuquqini baholash ekspertizalari va tekshiruvlarni tashkil qilish va o'tkazish asoslari. Yer maydoniga egalik qilish xuquqining ekspert tomonidan baholanishi	18	2	2	14
12.	Yer maydonlariga qo'shni yerkarning qo'shimcha o'zlashtirilgan (o'zlashtirilmagani)ligini aniqlash xamda yer maydonlarini bo'lishda "AutoCAD" dasturidan foydalanish	18	2	2	14
13.	Turar-joy binolarini bo'lib (ajratib) "Servitut" foydalanish asosida yer maydonlarini bo'lib (foydalanish tartibini aniqlab) foydalanish imkoniyatlarini aniqlash	18	2	2	14
Yakuniy nazorat (test)		2		2	
	Jami akademik soatlar	242	26	16	200

III. ASOSIY NAZARIY QISM (MA'RUZA MASHG'ULOTLARI)

1-Mavzu. Bino va inshootlarni baholash ekspertizalari va tekshiruvlarni tashkil qilish va o'tkazish asoslari

(16-soat: 2-soat ma'ruza, 14-soat amaliy mashg'ulot)

Ekspertiza va tekshiruvlarni amalga oshirish uchun asoslar. Ekspertiza va tekshiruvlar o'tkazishni tashkil qilish. Taqdim etilgan hujjatlarni tekshirish. Bino va inshootlarning ko'zdan kechirushi. Ko'zdan kechiruv natijalarini rasmiylashtirish.

2-Mavzu. Bino va inshootlar xamda ularning qismlarini eskirish miqdorini aniqlash asoslari

(18-soat: 2-soat ma'ruza, 16-soat amaliy mashg'ulot)

Bino va inshootlar va ularning qismlarini eskirishi turlari. Bino va inshootlar va ularning qismlarini eskirish miqdorini belgilash usullari.

3-Mavzu. Bino va inshootlarning baholarini aniqlash asoslari. Baholovchi tashkilotlar tomonidan tuzilgan baholash hisobotlarini ilmiy asosliliginini aniqlash usuli

(18-soat: 2-soat ma'ruza, 2-soat seminar, 14-soat amaliy mashg'ulot)

Bino va inshootlarning turlarini aniqlash. Bino va inshootlarning qiymatini aniqlashdagi yondashishlar. Bino va inshootlarning o'rtacha bozor qiymatini qiyosiy yondashuv (qiyosiy sotish usuli) qo'llash bilan aniqlash. Xarajatli yondashuv bilan bino va inshootlarning hisobiy - bozor qiymatini aniqlash. Baholovchi tashkilotlar tomonidan ko'chmas mulk ob'ektlarini baholash yuzasidan tuzilgan baholash hisobotlarini ilmiy asosli yoki asossizligi, mulkni baholashning milliy standartlariga va O'zbekiston Respublikasi me'yoriy hujjatlariga mos kelish yoki kelmasligini aniqlash usuli.

4-Mavzu. Ta'mirlash-qurilish va qurilish ishlari smeta hujjatlarining asosli yoki asossizligini aniqlash

(18-soat: 2-soat ma'ruza, 16-soat amaliy mashg'ulot)

Suv toshishi (yoki yong'in sodir bo'lganda) natijasida ko'p qavatli binolardagi xonadonlarda ta'mirlash ishlaringin smeta hujjatlari asosli yoki asossizligini aniqlash. TNQurilish dasturidan foydalanish.

5-Mavzu. Binolar hamda ularning qismlarini bo'lish va foydalanish tartibini belgilash

(18-soat: 2-soat ma'ruza, 16-soat amaliy mashg'ulot)

Turar joy, jamoat va ishlab chiqarishga mo'ljallangan binolarni (bino qismlarini) bo'lish (binolardan foydalanish tartibini belgilash) imkoniyatlari.

6-Mavzu. Ko'p qavatli binolarda xonadonlarni qayta ta'mirlash va loyihalashtirish. ShNK talablariga mosligi yoki mos kelmasligini aniqlash

(20-soat: 2-soat ma'ruza, 2-soat seminar, 16-soat amaliy mashg'ulot)

Qayta loyihalashtirish, xonadondagi xonalar o'rtasida devor va to'siqlarni olib tashlash, o'zgartirish, ularda eshik ochish, xonalarning ishlatish maqsadini o'zgartirish (masalan, oshxonani ko'chirish) va shu kabilar bilan bog'liq boshqa masalalar.

7-Mavzu. Qurilishda mansabdar shaxslar tomonidan talon-tarajlikka yo‘l qo‘yilishi hamda bino va ishootlarning texnik holatiga ta’sir qiluvchi avariya holatlarini aniqlash. Avariya holatlari sabablarini aniqlash

(22-soat: 2-soat ma’ruza, 2-soat seminar, 18-soat amaliy mashg’ulot)

Qurilishda mansabdar shaxslar tomonidan talon-tarajlikka yo‘l qo‘yilishining sabablari va sharoitlarining kelib chiqishi hamda bino va ishootlarning texnik holatiga ta’sir qiluvchi avariya holatlarini keltirib chiqaruvchi omillar. Binolarning cho‘kishi, namlanishi, ishlarning noto‘g‘ri bajarilishi oqibatida bino va inshootlarning (konstruksiya yoki elementlarining) qulashi, suv toshishi, pardozlash ishlarning shikastlanishi hamda ish jarayonida baxtsiz hodisalarning sabablarini aniqlash.

8-Mavzu. Ta’mirlash-qurilish va qurilish ishlari smeta hujjatlarining asosli yoki asossizligini aniqlashda TNQurilish dasturidan foydalanish

(20-soat: 2-soat ma’ruza, 18-soat amaliy mashg’ulot)

Ta’mirlash-qurilish va qurilish ishlari smeta hujjatlarining asosli yoki asossizligini aniqlash usullari. TNQurilish dasturi va undan foydalanish.

9-Mavzu. Sud-yer ekspertizasi ob’ektlari. Ajratilgan yer maydonlarining haqiqiy o‘lchamlarini yer ajratish kadastr hujjatlaridagi o‘lchamlar bilan mosligi yoki mos kelmasligini aniqlash

(20-soat: 2-soat ma’ruza, 2-soat seminar, 16-soat amaliy mashg’ulot)

Yer maydonlari va yer maydonlarida joylashgan bino, inshootlar, muhandislik tarmoqlari. Yer maydonlari rejasi, yer maydonlarini ajratish rejalar. Yer osti va yer ustki kommunikatsiya tarmoqlari. Yer maydonlarining haqiqiy o‘lchamlarini yer ajratish kadastr hujjatlariga xamda dastlabki yer ajratish rejasi (plan otvod) o‘lchamlar bilan mosligi yoki mos kelmasligini aniqlash asoslari.

10-Mavzu. Turar joy binolarini bo‘lishda yer maydonlarini bo‘lish imkoniyatlarini aniqlash

(16-soat: 2-soat ma’ruza, 14-soat amaliy mashg’ulot)

Yer maydonlarini tomonlarning ulushlari (yoki boshqa ulushlarini ko‘rsatish lozim) bo‘yicha shartli me’yor va qoidalar asosida bo‘lish imkoniyatlari.

11-Mavzu. Yerdan foydalanish xuquqini baholash ekspertizalari va tekshiruvlarni tashkil qilish va o‘tkazish asoslari. Yer maydoniga egalik qilish xuquqining ekspert tomonidan baholanishi

(18-soat: 2-soat ma’ruza, 2-soat seminar, 14-soat amaliy mashg’ulot)

Yer maydonlaridan foydalanish shakli, bino qurilmalari va muhandislik yer osti va yer ustki kommunikatsiyalarining yer maydoniga olib kirilishi. Hududlarning obodonlashtirilishi va yer maydonida kirish-chiqish yo‘laklarining joylashishi va o‘lchamlari. Baholanayotgan ob’ektga o‘xhash turdagni na’munalarning qisqacha tasnifi. Solishtirilayotgan ob’ektlar uchun sotish narxidagi o‘zgarishlar qiymatini belgilash va taqqoslash birligini aniqlash.

12-Mavzu. Yer maydonlariga qo‘shni yerkarning qo‘shimcha o‘zlashtirilgan (o‘zlashtirilmagan)ligini aniqlash xamda yer maydonlarini bo‘lishda “AutoCAD” dasturidan foydalanish

(18-soat: 2-soat ma’ruza, 2-soat seminar, 14-soat amaliy mashg’ulot)

Yer maydonlariga qo‘shni yerkarning o‘zlashtirilgan yoki o‘zlashtirilmaganligini yer ajratish kadastr hujjalari va dastlabki yer ajratish rejasi (plan otvod) o‘lchamlariga asosan “AutoCAD” dasturidan foydalangan xolda aniqlash asoslari.

13-Mavzu. Turar-joy binolarini bo‘lib (ajratib) “Servitut” foydalanish asosida yer maydonlarini bo‘lib (foydalanish tartibini aniqlab) foydalanish imkoniyatlarini aniqlash

(18-soat: 2-soat ma’ruza, 2-soat seminar, 14-soat amaliy mashg’ulot)

“Servitut” o‘zganing yer maydonidan cheklangan tarzda foydalanish xuquqi, shartlari, me’yorlari va qoidalari to‘g‘risida.

IV. SEMINAR MASHG‘ULOTLARI BO‘YICHA KO‘RSATMA VA TAVSIYALAR

Seminar mashg‘ulotlarida tinglovchilar o‘z bilimlarini chuqurlashtirib, ular bo‘yicha o‘z fikrlarini mustaqil ifoda eta olish ko‘nikmalari, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirib boradilar. Buning uchun o‘qituvchi mashg‘ulotlar jarayonida muammoli, bahsli vaziyatlarni yaratishi lozim bo‘ladi.

O‘qituvchi berilgan savolga javob berish jarayonida tinglovchi tomonidan hayotiy misollar keltirish, ularni hozirgi zamon voqeа-hodisalari bilan bog‘lab borish katta ahamiyatga ega. Mashg‘ulotlar davomida sodir bo‘lgan voqeа-

hodisalar bo'yicha tinglovchilarda mustaqil savollar, testlar tuza olish hamda qo'yilgan savollarga to'g'ri, aniq javob berish ko'nikmalarini rivojlantirib borish tavsiya etiladi.

V. AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

O'quv dasturining nazariy qismi Institutda amaliy qismi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi "Sud qurilish-texnik ekspertizasi bo'limi" maxsus kabinetlari va tadqiqot laboratoriylarida, tashqari joyda, ekspertiza tayinlangan ish bo'yicha amaldagi obyektlarida hamda boshqa joylarda o'tkazilishi mumkin.

Mashg'ulotda amaliy vazifalar muhokama etiladi va sud-qurilish-texnik ekspertizalari turlari bo'yicha ekspert xulosalari mustaqil tuziladi.

VI. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

Mustaqil ta'lif jarayonida sud eksperti o'quv dasturida belgilangan masalalarni o'rganishi uchun tavsiya qilingan adabiyotlar sud-qurilish-texnik ekspertizasi bo'limining ekspertlik amaliyoti bilan tanishishi hamda kamida 5ta ekspert xulosasi tayyorlab taqdim qilishi zarur.

O'quv kursi bo'yicha o'quv materiallarining kengroq egallash va tinglovchilar dunyoqarashini boyitish maqsadida o'qituvchilar tomonidan tinglovchilarga mustaqil ta'lif uchun mavzular va adabiyotlar tavsiya etiladi. Tinglovchilar mustaqil ta'lifda fanning hususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash.

VII. O'QUV VA ISHLAB CHIQARISH AMALIYOTLARI

(O'quv rejasida bu fan uchun ko'zda tutilmagan)

VIII. LABORATORIYA VA KURS ISHLARI

Tinglovchilar sud ekspertizasining tegishli yo'nalishi bo'yicha o'zlari tanlagan mavzularda malaka ishi (referat) tayyorlaydi va himoya qiladilar.

Malaka ishining (referat) hajmi 25 varaqdan (shrift-14, interval-1,2) kam bo'imasligi, qurilish-texnik ekspertiza sohasida mavjud muammoni aniqlangan va uni bartaraf qilish bo'yicha asoslangan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lishi lozim. Malaka ishi (referat) quyidagi tuzilishga ega bo'ladi:

- kirish qismi (ishning mavzusi, mavzuning dolzarbliji);
- asosiy qism (mavzu bo‘yicha aniqlangan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llarini asoslash; sud-qurilish-texnik ekspertizasi tadqiqotlariga oid yangi metodika ishlab chiqish yoki mavjud metodikani yangi ma’lumotlar bilan boyitish masalalarini asoslash);
- xulosalar (aniq taklif va tavsiyalar).

IX. O‘QUV DASTURINI O‘ZLASHTIRISH VA TA’LIM JARAYONLARINI TA’MINLASHGA MO‘LJALLANGAN O‘QUV VA METODIK MATERIALLAR

O‘quv jarayonini tashkil etish:

O‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, shuningdek, masofaviy ta’lim hamda o‘quv mashg‘ulotlarining interfaol “aqliy hujumlar”, “keys stadi”, “jamoa bo‘lib ishlash” hamda bilim va ko‘nikmalar berishning boshqa zamonaviy shakllari joriy etiladi.

O‘quv materiallari:

ma’ruza fondlari (shu jumladan, elektron shakldagi) va fan bo‘yicha o‘quv qo‘lanma, tarqatma materiallar;

multimedia materiallari (slaydlar, prezентatsiyalar va h.z.).

O‘quv-metodik materiallar:

test (yoki nazorat savollari) yohud masofaviy topshiriqlar;
amaliy topshiriqlar (masalalar yoki kazus va h.z.).

O‘quv dasturini amalga oshirish uchun zarur texnik ta’moti:

shaxsiy kompyuter – o‘qituvchining avtomatlashtirilgan ish joyi;
multimedia qurilmasi, ekran smart-televizor.

X .MUSTAQIL ISHLARNING TAXMINIY MAVZULARI:

- 1.Bino va inshootlarni baholash ekspertizalari va ularni o‘tkazish asoslari.
- 2.Turar joy binolarini bo‘lishda yer maydonlarini bo‘lish imkoniyatlarini aniqlash asoslari.
3. Yerdan foydalanish xuquqini baholash ekspertizalari va tekshiruvlarni tashkil qilish.
- 4.Bino va inshootlar xamda ularning qismlarini eskirish holatlarini oldini olish va bartaraf etish yo‘llari.
- 5.Ajratilgan yer maydonlarining haqiqiy o‘lchamlarini yer ajratish kadastr hujjatlaridagi o‘lchamlar bilan mosligi yoki mos kelmasligini aniqlashning zamonaviy metodlarini ishlab chiqish.

6.TNQurilish dasturidan foydalanish asosida ta'mirlash-qurilish va qurilish ishlari smeta hujjatlarining asosli yoki asossizligini aniqlash.

7.Baholovchi tashkilotlar tomonidan tuzilgan baholash hisobotlarini ilmiy asosliligini xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqib aniqlash.

8.Avariya holatlarini kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf etish yo'llari.

XI. YAKUNIY NAZORAT

O'quv dasturining barcha mavzulari bo'yicha yakuniy nazorat test shaklida o'tkaziladi va baholanadi.

XII. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI

ASOSIY ADABIYOTLAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari:

Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni kat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 592 b.

Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488 b.

Shavkat Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2018. – 508 b.

Shavkat Mirziyoyev. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2019. – 400 b.

Shavkat Mirziyoyev. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2020. – 452 b.

Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – 464 b.

Normativ-huquqiy xujjatlar va boshqa adabiyotlar:

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018;

O'zbekiston Respublikasining «Sud ekspertizasi to'g'risida»gi 2010-yil 1 - iyun qonuni. / O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2010. – 22-son. – 173-m.;

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 23.10.2018 y., 03/18/503/2080-son;

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2018 y., 03/18/503/2080-son;

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik-protsessual kodeksi // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 12.10.2018 y., 03/18/496/2043-son;

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.10.2018 y., 03/18/503/2080-son;

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 12.10.2018 y., 03/18/496/2043-son;

O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 12.10.2018 y., 03/18/496/2043-son;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldaggi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. / O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-m. (Ushbu Farmon «Xalq so‘zi» gazetasining 2017-yil 8-fevraldaggi 28 (6722)-sonida e’lon qilingan);

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 -yil 4-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi sud-tibbiy xizmati faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4049-son Qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.12.2018 y., 07/18/4049/2268-son;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi «Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4125-son qarori / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19-yanvar 2019. 07/19/4125/2510-son;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 5-yanvardagi “Davlat sud-ekspertiza muassasasi yoki boshqa korxona, muassasa, tashkilot tomonidan sud ekspertizasini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida”gi 5-son Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 14 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 321-son Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 15-dekabrdagi 300-sonli “Davlat sud eksperti sifatida attestatsiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 28-dekabrdagi 321-sonli “Davlat sud ekspertlarining hayoti va sog‘lig‘ini davlat tomonidan majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 13-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirish hamda sud ekspertlarining malakasini oshirish tizimini tashkil qilish to‘g‘risida”gi 206-sон Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 338-sон Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-martdagи “Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha nizomlarni tasdiqlash haqida” 180-sон qarori.

QO‘SHIMCHA ADABIYOTLAR

1999 -y. 11-sentabrida kuchga kirgan «Baholash faoliyati to‘g‘risida»gi O‘zR Qonuni;

2010-yilning 1-iyundagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan kuchga kirgan “Sud ekspertizasi to‘g‘risidagi” Qonun., №O‘RQ – 249;

O‘zR Fuqarolik - protsessual kodeksi, 30.08.1997 yidagi N 477-I O‘zR Qonuni bilan tasdiqlangan va 01.01.1998 y.dan kuchga kirgan;

2012-yilning 14-noyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi respublika sud ekspertizasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi»qarori, №321;

“O‘zbekiston Respublikasining Adliya vazirligiga qarashli sud-ekspert muassasalarida sud ekspertizasini o‘tkazish tartibi haqidagi” yo‘riqnomalar, 2011-y. 2-mart., № 2202;

O‘zR Mulkni Baholashning Milliy Standarti №1 (MBMS №1) - “Umumiy tushunchalar va tamoyllar”, O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish Davlat qo‘mitasi qarori bilan tasdiqlanangan. (14.06.2006 y. № 01/19-20.);

O‘zR Mulkni Baholashning Milliy Standarti №2 (MBMS №2) - “Bozor qiymati - baholashning asosi”, O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish Davlat qo‘mitasi qarori bilan tasdiqlanangan. (14.06.2006 y. № 01/19-20.);

O‘zR Mulkni Baholashning Milliy Standarti №3 (MBMS №3) - “Bozor qiymatidan farqlanadigan baxolash asosi”, O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish Davlat qo‘mitasi qarori bilan tasdiqlanangan. (14.06.2006 y. № 01/19-21.);

O'zR Mulkni Baholashning Milliy Standarti №4 (MBMS №4) -“Moliyaviy hisobotlar va kerakli hujjatlarni tuzish”, O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish Davlat qo'mitasi qarori bilan tasdiqlangan. (14.06.2006 y. № 01/19-22);

O'zR Mulkni Baholashning Milliy Standarti №10 (MBMS №10) "Otsenka Ko'chmas mulk bahosini aniqlash", O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish Davlat qo'mitasi qarori bilan tasdiqlangan (18.11.2009y. №2044);

O'zR Mulkni Baholashning Milliy Standarti RUz №12 (MBMS №12) "Ommaviy baholash usuli bilan soliq solish maqsadida ko'chmas mulk qiymatini aniqlash", O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish Davlat qo'mitasi qarori bilan tasdiqlangan (25.03.2012g. №01/19-18/06.);

«Ko'chmas mulkni baholash», R.X. Alimov va boshqalar. Toshkent, 2005-y;

«Ko'chmas mulkni baholash» Pak S.G tahriri ostida., 2008-y;

Bozor usullari bilan bino va inshootlarni iqtisodiy baholash bo'yicha uslubi tavsiyalar GKKINP -18-026-99.

INTERNET SAYTLAR VA DAVRIY NASHRLAR:

www.bilim.uz;

[http:// lex.uz](http://lex.uz) (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi);

[http:// www.tsul.uz](http://www.tsul.uz) (Toshkent davlat yuridik universiteti);

www.kupidom.com, www.makler.uz, www.shahar.uz, www.kapitalipoteka.uz,
www.olx.uz, www.uybor.uz internet saytlari.